

BULLING JIDDIY PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

oribboyevad@gmail.com 99899 972-81-28

<https://orcid.org/0009-0007-2827-7166>

Annotatsiya. Maqolada bullingning dolzarb pedagogik-psixologik muammo sifatidagi mohiyatini ochib berilgan bo'lib, uning ta'rifi, shakllari, sabablari va oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, bulling yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar taxlili va bullingga qarshi kurashish bo'yicha pedagogik va psixologik strategiyalar, jumladan, profilaktika, erta aniqlash va korreksion ishlar muhokamalari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Shu bilan birga ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning bullingga qarshi kurashishdagi roli ta'kidlanib, bullingning salbiy oqibatlarini kamaytirish va maktablarda xavfsiz va sog'lom muhit yaratishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: bulling, zo'ravonlik, pedagogika, psixologiya, o'quvchilar, maktab, profilaktika, korreksiya.

БУЛЛИНГ КАК СЕРЬЕЗНАЯ ПЕДАГОГО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В статье раскрывается сущность буллинга как актуальной педагогико-психологической проблемы, анализируются его определение, формы, причины и последствия. Также представлен анализ научных исследований по буллингу и обсуждение педагогических и психологических стратегий борьбы с буллингом, включая профилактику, раннее выявление и коррекционную работу. В то же время подчеркивается роль родителей, учителей и общества в борьбе с буллингом, даются практические рекомендации, направленные на снижение негативных последствий буллинга и создание безопасной и здоровой среды в школах.

Ключевые слова: буллинг, насилие, педагогика, психология, ученики, школа, профилактика, коррекция.

BULLING AS A SERIOUS PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Abstract. The article reveals the essence of bullying as a pressing pedagogical and psychological problem, analyzes its definition, forms, causes, and consequences. Also included is an analysis of scientific research on bullying and discussions of pedagogical and psychological strategies for combating bullying, including prevention, early detection, and correctional work. At the same time, the role of parents, teachers, and society in combating bullying is emphasized, and practical recommendations are given aimed at reducing the negative consequences of bullying and creating a safe and healthy environment in schools.

Keywords: *bullying, violence, pedagogy, psychology, students, school, prevention, correction.*

KIRISH

Hozirgi tobora shiddat bilan ilgarilab borayotgan dunyoda insonning psixologik tinchligi va xotirjamligi, farovonligi va barqarorligi muammosi judayam dolzarb ahamiyatga ega, bu esa davlat siyosati darajasidagi muammolardan bo'lib, shuningdek, tibbiy yordam berish, psixologik xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan alohida urg'u berish zaruriyati bilan ahamiyatlidir.

Jamiyatda ayni damlarda terrorizm, bezorilik, bullying, mobbing, tajovuzkor hujumlar va ijtimoiy guruhlar yoki shaxslarga nisbatan ijtimoiy zulmning boshqa shakllari kabi buzg'unchi ijtimoiy o'zaro ta'sir shakllari tobora ko'payib bormoqda.

Hozirgi davrda o'qituvchilar va psixologlar o'smirlar orasidagi bullying va agressiyaga qarshi kurash masalalariga ko'proq e'tibor qaratishmoqda. Bu masalalar o'smirlik yoshida inqirozli vaziyatlar, barqarorlik va xavfsizlik hissining yo'qligi tufayli alohida ahamiyat kasb etmoqda. [14]. Hozirda ta'lim jarayonida psixologik xavfsizlik va salbiy hodisalarning oldini olish masalasi juda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. "Bulling" (bullying) atamasi so'nggi vaqtlarda maktabda ro'y berayotgan turli tazyiqini ifodalash uchun umumiy qabul qilingan so'zga aylanib ulgurdi. Bulling muammosini o'rganishning ahamiyati o'quvchilar o'rtasidagi mojarolarning keng tarqalishi va o'smirlar orasidagi agressiv xatti-harakatlarning yuqori ko'rsatkichlari bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rus tadqiqotchilaridan (I.S. Berdyshev, A.A. Bochaver, K.D. Xlomov, V.N. Butenko, E.N. Volkova, O.L. Glazman, I.S. Kon, S.V. Krivtsova, A.A. Nesterova, M.G. Nechaeva, V.R. Petrosyants., O.A.S.. Shevtsova, L.B. Schneider va boshqalar) va xorijiy psixologlardan (A. Crump, P. Eitel, D. Haynie, T.R. Nansel, D. Olweus, M. Overpeck, R.S. Pilla, W.J. Ruan, C. Salmivalli, K. Saylor, P. Sheldt, B. Simons-Morton, K. Yu va boshqalar) ning tadqiqotlari o'smirlarning o'zaro munosabatlarida bullyingning yuqori darajada tarqalishini ko'rsatadi: jumladan dunyo miqyosida

maktab o'quvchilarining 20 dan 50 foizigacha turli xil tajovuz va zo'ravonliklarni boshdan kechirganliklari isbotlangan.

Bolalarga nisbatan o'tkaziladigan bulling xodisasi bo'yicha 2017 yilgi Jahon hisobotiga (YUNESKO) ko'ra, aytish mumkinki, dunyodagi har o'ninchi maktab o'quvchisi bullingga uchraydi va bu ko'rsatkich, afsuski, har yili barcha mamlakatlarda borgan sari ortib bormoqda.

Bulling (qo'rqitish) inglizcha "Bullying" so'zidan olingan bo'lib, bir insonning boshqa inson tomonidan qo'rqitilishi, bolaning boshqa bolani agressiv ta'qib qilishi xisoblanadi. Bu holat har qanday yosh va ijtimoiy guruhda ham sodir bo'lishi mumkin va og'ir hollarda jamoaviy jinoyatchilikning ayrim shakllarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Bullingning jarayonida agressiv va salbiy xulq-atvor, muntazam ravishda sodir bo'ladi, munosabatlar teng huquqli bo'lmagan tomonlar o'rtasida ro'y beradi hamda bu xatti-harakatlar qasddan amalga oshiriladi.

Bullingning kuyidagi turlari mavjud bo'lib uni oddiy janjaldan yeki xazil xuzullardan farkli ekanligini anglash lozim bo'ladi. Jismoniy bulling – bolaga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, natijada tan jarohatlari va jismoniy shikastlanishlar (kaltaklash, urish, turtkilash shapaloq urish, to'sish, tepish). Eng og'ir hollarda qurol, masalan, pichoq ishlatiladi. Bu xulq-atvor ko'proq o'g'il bolalar o'rtasida ko'proq uchraydi, qizlarga nisbatan. Jismoniy bullingning bir turi jinsiy bulling (tajovuz, zo'rlik, jinsiy aloqaga majburlash) hisoblanadi. Psixologik bullingda esa bolaning ruhiyatiga ta'sir qilish bilan bog'liq zo'ravonlik, so'z bilan haqorat qilish yoki tahdidlar orqali jabrlanuvchiga ruhiy jarohat yetkazish natijasida qasddan emotsional beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Psixologik bullingning bir necha turlari mavjud:

Verbal bulling – jabrlanuvchiga doimiy ravishda haqoratli nom yoki laqab bilan murojaat qilish, haqorat qilish, masxara qilish, haqoratli mish-mishlarni tarqatish, bir yoqlama baholar, boshqa bolalarning huzurida kamsitish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Neverbal bulling – haqoratli ishoralar yoki harakatlar (jabrlanuvchining yuziga tuflash, behurmat qiladigan turli ishoralar ko'rsatish);

Qo'rqitish – doimiy tahdidlar, shantaj orqali jabrlanuvchida qo'rquv hislarini uyg'otish va ularni muayyan harakatlar va amallarni sodir etishga majbur qilish;

Izolyatsiya – jabrlanuvchi qasddan izolyatsiya qilinadi, jamoadan chiqarib yuboriladi yoki qisman e'tiborsiz qoldiriladi.

Do'stlashishdan va birga o'ynashdan voz kechish-bola bilan o'ynashni, do'stlashishni, sayr qilishni rad qilish, u bilan bir partada o'tirmaslik, tug'ilgan kunlarga va boshqa tadbirlarga taklif qilmaslik.

Talab qo'yish – jabrlanuvchidan shantaj va qo'rqitish orqali pul, qimmatli buyumlar va ashyolar, ovqatlanish uchun yeguliklar talab qilinadi.

Mol-mulkni buzish va boshqa harakatlar – o'g'irlik, talonchilik, jabrlanuvchining shaxsiy buyumlarini yashirish;

Maktab kiberbullingi – internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, telefon yoki boshqa elektron qurilmalar orqali haqorat qilish, kamsitish (video va fotosuratlarini yuborish, anonim telefon qo'ng'iroqlari, haqorat qilish, mish-mishlarni tarqatish, bulling qurbonini videoga olish va internetga joylash).

Odatda jismoniy va psixologik bulling oqibatlari bir xil yakun topadi. Masxara va haqoratlar uzoq vaqt davom etishi natijasida jismoniy bulling va psixologik bulling jabrlanuvchida jarohatli izllarni qoldiradi. Bulling jarayonida "jabrdiyda" yoki zo'ravon har turli yoshdagi bolalar bo'lishi mumkin. Bunday bolalar faol, o'ziga ishongan, ustunlikka moyil, axloqiy va jismoniy jihatdan kuchli bolalar bo'lib o'z imkoniyatlarini noto'g'ri xarakatlarida namoyish etadilar.

Bulling jarayonida hamisha quyidagi rollar mavjud bo'lib "Agressor" – jabrlanuvchini ta'qib qiladi va qo'rqitadigan shaxs, "Jabrdiyda" – bullingga uchragan shaxs, "Himoyachi" – jabrlanuvchi tomonida bo'lib, uni agressiyadan himoya qilishga harakat qiluvchi shaxs hamda "Ishtirokchilar" – buller tomonidan boshlangan travlaga qatnashgan odamlar, "Qo'llovchilar" – buller tomonida bo'lib, ta'qiblarda bevosita ishtirok etmaydigan, ammo ularga to'sqinlik qilmaydigan, "Kuzatuvchilar" agressiv o'zaro ta'sir jarayonidagi ta'qiblarning tafsilotlarini biladigan, ammo neytrallikni saqlaydigan shaxslar sifatida bullingi jarayonida bevosita ishtirok etadilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mavzu ustida ishlash jarayonida 7-8 sinf o'quvchilarining agressiv xulq-atvori xususiyatlari bo'yicha tadqiqot o'tkazildi, tadqiqot jarayonida 350 kishidan ishtirok etdi va quyidagi natijalar olindi.

O'quvchilar muntazam ravishda o'z sinfdoshlari tomonidan agressiv xulq-atvorning quyidagi ko'rinishlari bilan doimo duch kelishadi: 29% - doimo haqoratlarga, 18% - ustidan kulishlari, 14% - baqiriqlarga, ya'ni sinfdoshlari tomonidan verbal agressiyaga duch kelishadi.

Ular yolg'on mish-mishlarni tarqatish, o'z xohishiga qaramasdan turli ishlarga majbur qilish, adolatsiz ustidan kulgilar, tashqi ko'rinish xususiyatlarini mazax qilish kabi holatlar bilan doimiy ravishda azoblanishlarini bildirdilar.

Shuningdek, o'smirlar orasida jismoniy agressiya ko'rinishlari ham tez-tez uchrab turadi: oyog'idan chalish, turtkilash, shaxsiy buyumlari bilan manipulyatsiya qilish. Maktabdagi xavotirli omillardan yana biri shundaki, sinf o'quvchilari tomonidan turli sabablarga ko'ra jamoaga qabul qilinmaydigan bolalar bor bo'lib, ular tizimli ravishda sinfdoshlari tomonidan agressiyaga va bullingga duch kelishadi. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, sinfda bunday o'quvchilar o'rtacha 10-13% ni tashkil etadi va ularni bulling qurbonlari deb atash mumkin.

Afsuski, ushbu ma'lumotlar o'smirlardagi agressiyaning ko'p hollarda muammoli vaziyatga javob berishning instinktiv shakli sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatmoqda, chunki o'smirlarda kommunikativ ko'nikmalar va o'z-o'zini boshqarish mahorati yetarlicha rivojlanmagan. [3]. Ma'lumki nizolar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan [7].

Bulling -bu guruhdagi destruktiv nizo turi bo'lib, jabrdiyda o'zini himoya qilishga qodir bo'lmagan holatda tajovuzkor tomonidan uzoq muddatli va qayta-qayta sodir etiladigan zo'ravonlik harakatlarini o'z ichiga oladi. Sinfda bulling paydo bo'lganida, bulling strukturasi- ta'qibchilar, ularning qurbonlari va kuzatuvchilaridan iborat ijtimoiy tizim paydo bo'ladi. [8]. Bulling ijtimoiy tuzilishiga quyidagi ishtirokchilar kiradi: ta'qibchilar, qurbonlar, ta'qibchilar yordamchilari, qurbonlarni himoya qiluvchilar, neytral ishtirokchilardan iborat bo'ladi [13]

Empirik tadqiqot natijalarimizga asoslanib, "qo'zg'atuvchi qurbonlar" deb nomlangan ishtirokchilar guruhini ham ajratish mumkin.

Muammoning ko'lemi va uning keng tarqalishi bullingning oldini olish imkoniyatlari masalasini ta'lim muassasalarida birinchi o'rinda turishi kerak. Chunki bullingni to'liq yengib o'tishdan ham oldin uning eng xavfli oqibatlarining oldini olish haqida o'ylash kerak. Odatda tadqiqotchilar tomonidan bullingning psixologik profilaktikasining quyidagi yo'nalishlari ta'kidlanadi:

- Bullingning oldini olish uchun sharoitlar yaratish (pedagogik jamoa va o'quvchilar jamoasi bilan ishlash).
- Bolalarga stress ta'sirini tez va to'g'ri tugatish (individual ish, inqiroziy aralashuv)
- Stressga chidamlilik ko'nikmalarini rivojlantirish, qiyinchiliklarni yengish strategiyalari (treninglar, leksiylar). [13]

Mazkur muammo tadqiqotchilar e'tiborini ohirgi vaqtlarda jalb qilgani uchun, umumiy qabul qilingan strategiya mavjud bo'lmasada, lekin ayrim ijobiy natijalar mavjud. Bullingni profilaktika qilish uchun eng samarali profilaktika dasturi 20 yil oldin Bergenda (Norvegiya) bulling bo'yicha mashhur tadqiqotchi D. Olveus tomonidan taklif qilingan, bu dastur Norvegiyada 2001 yildan boshlab milliy ustivor dastur maqomini olgan va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bu dastur 4 asosiy tamoyilga asoslangan bo'lib, ta'lim muassasasida sharoit yaratishni o'z ichiga oladi: [8]

- Kattalarning iliq munosabati, ijobiy qiziqishi va ishtiroki;
- Nomunosib xulq-atvorga nisbatan qat'iy qoidalar va chegaralar;
- Nomunosib xulq-atvor va qoidalarni buzish uchun jazosiz, jismoniy bo'lmagan sanksiyalarni izchil qo'llash;
- Avtoritet va kattalarning namunaviy xolatlarining mavjudligi.

XULOSA

Ko'p yillik tizimli nazorat tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Olveus dasturini qo'llash maktabda bullingga uchragan yoki uni sodir etgan o'quvchilar sonini 30-50% ga qisqartirishga olib keladi.

Bulling profilaktika dasturlarining xalqaro tajribasini umumlashtirib, uchta asosiy profilaktika usullari guruhini ajratish mumkin:

1. Aniq bolalar va o'smirlarga qaratilgan usullar;
2. Oilaviy munosabatlarga qaratilgan usullar;
3. Bolaning yaqin atrofiga (mikrosotsium) qaratilgan usullar.

Yuqoridagi tajribalarga tayangan holda quyidagi asosiy yo'nalishlarni shakllantirish mumkin.

Ta'lim muassasasi darajasidagi ishlar yo'nalishlari: ta'lim muassasasining psixoemotsional muhitini diagnostika qilish va ma'muriyat bilan motivatsion-tarbiyaviy ishlarni olib borish, ta'lim muassasasida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish dasturlari, maktab jamoasini birlashtirishga qaratilgan tadbirlar.

2. Pedagogik jamoa va ota-onalar bilan ish yo'nalishlari: Pedagoglar va ota-onalar bilan maslahat va ta'limiy ishlar, kattalar (ota-onalar, o'qituvchilar)ning psixologik-pedagogik kompetentligini oshirish dasturlari.

3. O'quvchilar bilan ishlash yo'nalishlari: Jazo olgan bolalar bilan maslahat va korreksiya ishlarini olib borish, o'quvchilar jamoasi bilan axborot-targ'ibot ishlari, o'quvchilarning kommunikativ madaniyatini oshirish, o'smirlarning emotsional sohadagi cheklovlarini profilaktika qilish va to'g'rilash, maktab o'quvchilarining asotsial xulq-atvorini profilaktika qilish, stressga chidamlilik, muammolarda konstruktiv xulq-atvor va ishonchli xulq-atvor, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Bulling, bugungi kunda jiddiy pedagogik-psixologik muammo sifatida e'tirof etilmoqda. U nafaqat jabrlanuvchining, balki tajovuzkorning o'zi va guvohlarning ham psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bullingning oqibatlari uzoq muddatli bo'lishi mumkin, jumladan, depressiya, xavotirlik, ijtimoiy izolyatsiya va o'z joniga qasd qilish kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Pedagoglar va psixologlar bullingni erta aniqlash, uning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyat olib borishlari zarur. Bu o'quvchilarda empatiya, hurmat va hamkorlik kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni, shuningdek, maktab muhitida xavfsizlik va qo'llab-quvvatlashni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Bullingga qarshi kurashishda ota-onalarning, o'qituvchilarning va butun jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bulling holatlari haqida xabar berish, jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va tajovuzkorlarga yordam ko'rsatish

orqali biz maktablarda xavfsiz va sog'lom muhit yaratishga hissa qo'shishimiz mumkin. Bullingga qarshi kurashish - bu doimiy va kompleks jarayon bo'lib, u barcha ishtirokchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirishni talab qiladi. Faqatgina shunday yondashuv orqali biz bullingning salbiy oqibatlarini kamaytirishga va har bir o'quvchining o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga imkon beradigan muhit yaratishga erishishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Александрова Л.А. К концепции жизнестойкости в психологии// Сибирская психология сегодня: сб. науч. трудов. / под ред. М.М.Горбатовой, А.В.Серого, М.С. Яницкого. Кемерово: Кузбассвузиздат, 2004. Вып. 2. С. 8290.
2. Александрова Л.А. Психологические ресурсы адаптации личности к условиям повышенного риска природных катастроф: дис. ... канд. психол. наук. Кемерово, 2004. 207 с.
3. Алексеева Л.С. Насилие и психическое здоровье детей // Семья в России. 2006. №2. С.73-80.
4. Арчакова Т.О. Жизнестойкость против факторов риска [Электронный ресурс] - Режим доступа: URL:<http://psyjournals.ru/articles/d20835.shtml> (дата обращения 14.10.2010).
5. Баева И.А. Общепсихологические категории в практике исследования психологической безопасности образовательной среды // Известия российского государственного университета им. А.И. Герцена. 2010. №128. С.27-39.
6. Баева И.А. Психология безопасности как направление психологической науки и практики // Национальный психологический журнал. 2006. С.66-68.
7. Баева И.А. Психологическая характеристика образовательной среды: диагностика и оценка // Известия российского государственного университета им. А.И. Герцена. 2002. Т.2. №3. С. 16-23.
8. Богомаз С.А. Жизнестойкость человека как личностный ресурс совладания. [Электронный ресурс] - Режим доступа: URL: www.znopr.ru/upload/content/457/tom4.pdf (дата обращения 14.10.2010).
9. Волкова Е.Н. Система защиты детей и подростков от насилия и жестокого обращения // Социальная педагогика. 2007. №4. С. 77-79.
10. Волкова Т.Г. Особенности Образа - Я личности, считающей себя испытавшей насилие, дис. ... канд. психол. наук. Барнаул, 2004. 271 с.
11. Гребенкин Е.В. Профилактика агрессии и насилия в школе. Р-н/Д: Феникс. 2006. 157с.
12. Дугаева Ю.К. Жизнестойкость людей с разной психологической безопасностью //Наука о человеке: гуманитарные исследования. 2010. №5. С. 130-133.
13. Зотова Н.Г. К вопросу о психологическом сопровождении образовательной среды // Психология образования: региональный опыт (Москва, 13-15 декабря 2005 г.). Материалы Второй научно-практической конференции. - М.: Общероссийская общественная организация «Федерация психологов образования России», 2005. С.53-54.

14. Куликов Л.В. Психогигиена личности. Вопросы психологической устойчивости и психопрофилактики. СПб.: Питер, 2004. С. 87-115.
15. Кутузова Д.А. Травля в школе: что это такое и что можно с этим делать // Журнал практического психолога. Вып.1. 2007. С. 72—90.
16. Лейн Д.А. Школьная травля (буллинг). [Электронный ресурс] - Режим доступа: URL: [http:// www.supporter.ru/ docs/1056635892/bulling.doc](http://www.supporter.ru/docs/1056635892/bulling.doc) (дата обращения: 09.10.2010).
17. Стрельбицкая А.А. Динамика школьного буллинга в коллективах старшего звена // Педагогическая диагностика. 2010. №2. С. 104-124.